

SADOI TURKISTON GAZETASIDA O'LKA IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTINING YORITILISHI

Davlatboyeva Vasila Azamat qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada "Sadoi Turkiston" gazetasining XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda gazeta sahifalarida aks etgan mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy talon-toroj, ijtimoiy tengsizlik hamda mahalliy aholining kamsitilish holatlari misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, "Sadoi Turkiston"ning jadid matbuoti sifatida milliy ongni uyg'otish, xalqni ma'rifatga chorlash va islohot g'oyalarini targ'ib etishdagi faoliyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Sadoi Turkiston, jadid matbuoti, Turkiston, mustamlakachilik, milliy uyg'onish, ijtimoiy-siyosiy hayot, ruslashtirish siyosati, ma'rifatparvarlik, gazeta, islohot.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль газеты «Садои Туркистон» в освещении общественно-политической жизни Туркестана начала XX века. На основе примеров раскрываются последствия колониальной политики, экономическая эксплуатация, социальное неравенство и проявления дискриминации местного населения. Также рассматривается деятельность газеты как важного органа джадидской печати, направленного на пробуждение национального самосознания, распространение просвещения и продвижение идей реформ.*

Ключевые слова: *Садои Туркистон, джадидская пресса, Туркестан, колониализм, национальное пробуждение, общественно-политическая жизнь, русификация, просвещение, газета, реформы.*

Abstract: *This article analyzes the role of the newspaper "Sadoi Turkiston" in covering the socio-political life of Turkestan in the early 20th century. Based on various examples, it reveals the consequences of colonial policy, economic exploitation, social inequality, and discrimination against the local population. The study also highlights the newspaper's role as an important Jadid press organ aimed at awakening national consciousness, spreading enlightenment, and promoting reformist ideas.*

Keywords: *Sadoi Turkiston, Jadid press, Turkestan, colonialism, national awakening, socio-political life, Russification policy, enlightenment, newspaper, reforms.*

Ma'lumki, XX asrning boshlari Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining sezilarli jonlangani bilan xarakterlanadi. Chor ma'murlari tomonidan olib borilgan ruslashtirish siyosati, xalq xo'jaligining barcha sohalarida mustamlaka ishlab chiqarish tizimining hukmronligi, ma'muriy tazyiqning tobora kuchayib borishi mahalliy aholi orasida mavjud tuzumdan norozilik tuyg'usini kuchaytirdi. Bu ruh ma'lum darajada "Sadoi Turkiston" sahifalarida ham o'z ifodasini topdi. O'lka ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishda gazeta faol mavqeni egallay oldi. Garchi gazeta o'z maslagini "Maishiy, fanniy, iqtisodiy

va tarixiy soʻzlarnigina soʻylab, siyosiy soʻzlardan mumkin qadar saqlanmogʻi tabiiydur” deya ayon etgan boʻlsa-da, uning butun faoliyati mustamlakachilik zulmi ostida ezilgan xalqning shuuri va gʻururini uygʻotishga qaratilgan edi. Bu hatto “Maqsad va maslak” sarlavhali bosh maqolada seziladi: “Bizning bu jaridamiz Turkiston musulmonlarining ahvolini isloh va huquqini mudofaa maqsadi ila chiqorilgan”-deya koʻrsatiladi³¹. Bu yerda ikki asosiy yoʻnalish koʻzga tashlanadi. Birinchisi — “ahvolni isloh qilish”, yaʼni jamiyatni maʼrifiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, xalq ongini uygʻotish va uni taraqqiyot sari yetaklash. Ikkinchisi — “huquqni mudofaa qilish”, bu esa mustamlaka sharoitida yashayotgan mahalliy aholining siyosiy va fuqarolik huquqlarini himoya qilish, ularning manfaatlarini ilgari surishni anglatadi. Shu jihatdan, gazeta rasmiy ravishda siyosatdan chetda ekanini aytgan boʻlsa-da, amalda u milliy uygʻonish va ozodlik gʻoyalarini yoyuvchi vosita boʻlib xizmat qilgan. Yaʼni uning maqsadi oddiy axborot berish emas, balki xalqni ongli ravishda oʻz haq-huquqlarini anglashga undash edi.

Gazetaning mahalliy xalqlar manfaatini himoya etishini oshkora maʼlum qilganidan ruhlangan yerli millat farzandlari “Sadoi Turkiston” sahifalariga tabrik maktublarini yoʻllaydilar. Oʻz davrining maʼrifatparvarlaridan biri Mirmuhsin Shermuhamedov: “Emdi oʻzimizning milliy jaridamiz maydonga chiqdi... Vatan xodimlari uch tarafdin, balki toʻrt tarafdin (“Sadoi Turkiston”, “Oyina”, “Sadoi Fargʻona”) millat bechoraning arz, figʻonini yetkura boshladilar. Yashasun millat, yashasun ushbu yilning bahorida ochilgʻon millatimiz gullari!”- deya mazkur nashrlarga katta umid bogʻlaydi³². Bunda u mazmunan oʻsha davrdagi milliy matbuotning jamiyat hayotidagi oʻrni va taʼsirini yaqqol koʻrsatadi. Eng avvalo, gazetaning mahalliy xalq manfaatlarini ochiq himoya qilishi katta ijtimoiy renosans uygʻotganini koʻrish mumkin. Chunki mustamlaka sharoitida bunday ochiq pozitsiya kam uchraydigan hodisa boʻlgan va shu sababli u millat vakillariga ruhiy tayanch vazifasini bajargan. Bu bejiz emas edi. “Sadoi Turkiston” ilk sonlaridan boshlab musulmonlar hayotini keng tahlil qilishga kirishadi.

Turkistonning Rossiya temir yoʻl tizimiga kiritilishi oʻlkadagi tabiiy boyliklarning behad tarzda Rossiyaga tashib ketilishiga imkon yaratdi. Paxta, qorakoʻl, ipak, quruq meva singari xom ashyo va oziq-ovqatlar markazga tinimsiz oqa boshladi. Turkiston Rossiyaning xom ashyo manbaiga aylantirilgan edi. Buning ustiga ichki Rossiyadan minglab mujiklarni keltirib, Turkistonning serhosil yerlariga joylashtirish, mahalliy xalqni bu joylardan siqib chiqarish avj olgan edi. Manbalarga koʻra Rossiyadan 1887 yili 196 xonadon koʻchib kelgan boʻlsa, 1913 yilda bu raqam 2005 taga yetadi³³.

“Sadoi Turkiston” chor hukumati yuritgan bu mashʼum siyosat haqida: “Boshqalar tuprogʻimizdan oltin olgʻonlarini koʻrub barmogʻimizni tishlasak hayhot!!! Bizim bu gʻaflatimizdan koʻzi ochiq xalqlar tezlik ila foydalandilar, foydalanmakdalar”-deya

31 Sadoi Turkiston. 1914 yil, 4 aprel

32 Sadoi Turkiston. 1914 yil, 15 aprel

33 Jadidchilik, islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Fan, 1999

nadomat bilan yozadi³⁴. “Ruslar shul qadar uzoq yerlardan kelub o‘n yilga yetmasdan shuncha boyub nashu namo qiladur”³⁵. Bu alamli e‘tirof zamirida mahalliy xalqlarning zamonaviy xo‘jalik yuritish usulidan uzoqligi ham aks etgan edi. “Sadoi Turkiston” “Sanoatimiz qo‘ldan ketur” sarlavhali maqolasida o‘lkada ishlab chiqarish tizimini mustamlakachilar egallab olayotganligidan ogohlantirib, buning chorasini izlash zarurligini uqtiradi. “Biz bu hol ila ketsak sanoatimiz ham qo‘ldan ketar, amalarimiz ishsiz qolur”, deya achchiq bo‘lsa-da, haqiqat gapni yozadi. Buning birdan-bir chorasi: “Bolalarimizni har xil hunar maktablariga berayluk va zamoncha tarbiyat qilayluk” degan xulosaga keladi³⁶. Ma‘lumki, chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgach barcha yerlar podshohlik mulki deb e‘lon qilingan va bu qonun bilan mustahkamlangan edi. Bu to‘g‘rida 1917 yil iyulda Qozonda o‘tgan Butunrossiya musulmonlari Qurultoyida Ubaydulla Asadullaxo‘jayev shunday degan edi: “Shu kungacha Turkiston rus kapitalistlari uchun govmish sigir bo‘lib kelmoqda. Bugun Turkiston Rossiyaga paxta yetkazuvchidir. Turkistonda yiliga 10–12 million pud paxta yetishtirilsa, u holda bizning paxtakorlar tomonidan ishlab topilgan 100 mln so‘m har yili rus kapitalistlari cho‘ntagiga tushmoqda”³⁷.

Mana shu qonunga nisbatan fikri U. Asadullaxo‘jayevning “Bizga yolg‘uz gadolik yoki o‘g‘rilik qolur” sarlavhali maqolasida ham aks etgan. Butun Turkiston iqtisodini egallab boradigan tekinxo‘r burjua sarmoyadorlarining qudrati nimada degan savolga muallif “ayb o‘zimizda” deb javob beradi. Ular bor imkoniyatlarini ishga solishmoqda. Bu xo‘rlikdan qanday qutulish mumkin? U Asadullaxo‘jayev qat‘iyat bilan: “O‘qimak va o‘rganmak bilangina bu azoblardan qutulish mumkin”, deydi. Aks holda, “biz uchun ikki kasb qolur: o‘g‘rilik va gadolikdur”-deyiladi³⁸. “Sadoi Turkiston” da bosilgan “Bizda shahar soliqlari” maqolasida o‘sha paytdagi soliq tizimi haqida to‘liq ma‘lumot berilgan. Ayni choqda, uning mahalliy xalqni ezish uchun qanday siyosiy niqob ekanligini ham anglaymiz. “Mol va mulklarimizni hech bitmaydurghan deb bilub ko‘p ishonduk va aldanuduk... Mazkur quturuvlardan qutulmak uchun biz hayotning, zamon va madaniyatning quchog‘iga otilib, uning talablarini bajo kelturmakka majburmiz”-deb yoziladi³⁹.

Shu sababli U. Asadullaxo‘jayev 1914 yil 26 noyabrda shahar dumasining uchinchi yig‘ilishida so‘zga chiqib yer va hovlilarga solinadigan shahar solig‘ini oshirmaslikni, ba‘zi rus politsiya ma‘murlari bu borada qonunga xilof harakatlar bilan musulmonlarga aybsiz jabr qilayotganliklarini aytadi. Uning tashabbusi bilan дума qoshida yetti kishidan iborat huquq komissiyasi tuziladi. Yetti a‘zodan birgina U. Asadullaxo‘jayev mahalliy aholi vakili edi. Bu haqdagi batafsil ma‘lumotlar gazetaning 1915 yil 3 dekabr sonida chop etilgan.

34 Turon. 1 to‘plam, 2004. 55-b

35 Sadoi Turkiston. 1914 yil, 4 aprel

36 O‘sha joyida

37 Sadoi Turkiston. 1914 yil, 4 aprel

38 O‘zbekistonning yangi tarixi, 1 tom. – T.: Sharq, 2000. 132-b

39 Sadoi Turkiston. 1915 yil, 1 aprel.

“Sadoi Turkiston” o‘ziga qadar chiqqan jadid gazetalaridan farqli o‘laroq siyosiy huquqlar masalalariga katta e‘tibor beradi. Jumladan, o‘sha paytlarda Toshkent shahrida elektr tramvaylar harakati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, haydovchilari ruslardan iborat edi. Shahar dumasi yig‘ilishida gazeta bosh muharriri дума a‘zosi sifatida tramvay haydovchilarining musulmonlarga tazyiqi xususida to‘xtalib, ularni doimiy ravishda taftish qilib turish masalasini ko‘taradi. Hatto ruslar va musulmon aravakashlariga bir xilda soliq belgilanishini, aks holda u musulmonlarning kamsitilishiga olib kelishi mumkinligini kuyunchaklik bilan gapirgan. Bir qarashda oddiygina masala bo‘lgan bu mavzu mustamlakachilik tuzumiga qarshi uyg‘onib kelayotgan nafratning botiniy ifodasi edi⁴⁰. Ma‘lumki, Rossiyada 1905–1907 yillardagi inqilobiy chiqishlar samarasi o‘laroq ilk bor parlament – Davlat dumasi tashkil topgandi. Davlat Dumasiga Turkistondan noiblar saylash borasida ham adolatsizlik yuz berdi. 1905 yil 11 dekabrda saylov qonuniga ko‘ra, barcha mahalliy xotin-qizlar, ikki million ishchi, harbiy xizmatchi, o‘quvchi, umuman 25 yoshga yetmagan aholi saylov huquqidan mahrum qilindi.

“Turkistondagi saylov qoidalari loyihasi” mulkdor tabaqalar va mahalliy ma‘muriyat manfaatlarini o‘zida mujassam etgan edi. Ma‘rifatparvarlar bu masalani ko‘tarishda matbuotdan foydalanishga harakat qilganlar. Tahririyat tomonidan tayyorlangan “Shahar saylovi va musulmonlar” sarlavhali maqolada: “Musulmonlar nufuzi jihatiga bir necha hissa ko‘p bo‘lg‘onlari holda, ruslardan yigirma sakkiz musulmonlardan yigirma ikkigina glasniy saylanur. Bu jihatdan qaraganda bizni kamsituv kabi ko‘rinsa ham, hozirgi ahvolga qaraganda qonun va qoidani bir tarafga qo‘yib turib faqat o‘zimizdangina shikoyat qilmakka majburmiz”, deb yozadi. “Majburmiz” so‘ziga e‘tibor bersak, bu alam, xo‘rlik va milliy zulmni anglatishning o‘ziga xos usuli edi. O‘z nafs, shaxsiyati yo‘lida ertayu kech chor ma‘murlari bilan hamtovoq bo‘layotgan mahalliy amaldorlar va boylarning millat taraqqiyoti yo‘lida hech bir ezgu ishga bosh qo‘shmayotganliklari ma‘rifatparvarlarni iztirobga solar edi. Rus “glavniy”larining g‘ayrat va shijoatlari bilan Toshkentning yangi shahar dahasi kundan kunga obod bo‘lib borardi. “Musulmon glavniylarining beparvoliklari soyasida, — deb yozadi gazeta, — musulmon shahri hanuz qish kunlarida otlarning qorniga qadar chiqadurghan loy va balchiqlardan, buzilgan va o‘yilgan ko‘prik va ko‘chalardan, ichidagi chirog‘i o‘zini zo‘rg‘a ko‘rsatadurghan qorong‘i fonarlardan qutula olmaydur”⁴¹ -deb keltiriladi. Bu tasvirda ko‘z o‘ngimizda eski shaharning horigan qiyofasi namoyon bo‘ladi. Davlat dumasi shahar budjetidan ajratgan pullarga ruslar maktablar, bog‘chalar, teatrlar ochib foydalanishardi. Bizning mahalliy “glavniy”lar-chi? “Rus-tuzem maktablari ochmakdan boshqa ishlari yo‘q. Mana bu xususda kim aybli? Hukumatmi? O‘zimiz aybli. Endi ko‘zimizni ochib glavniyga chin millat xodimlarini va manfaat umumiyadan xabardor xolis kishilarni topib saylamog‘imiz kerak” deya ta‘kidlaydi gazeta.

40 Sadoi Turkiston. 1915 yil, 28 fevral.

41 Sadoi Turkiston. 1914 yil, 3 dekabr.

Xuddi shunday fikr musulmon ruhoniya idoralarini tashkil etish borasida ham ko'tariladi. "Sadoi Turkiston" yozadi: "To'y va imoratlardan bo'shamayotgan boylardan, chopon kiyishdan charchamayotgan ulamo va mashoyixlardan kuyunib boshga bolta ham kelub yetdi. Anda birgina o'lsun Turkiston musulmonlarining ahvol va orzularidan xabardor vakil yo'qki, bizim tarafimizdan mudofaa bo'lsa". Shu o'rinda gazetaning 1914 yil 2 may sonida e'lon qilingan Nushiravon Yovushevning "Sayohat parchalari" publitsistik asaridan parcha keltiraylik. Muallif Marg'ilon shahriga qilgan safarida shunday yozadi: "Bilet olub ko'k vagunga kirdum. Bir odam mening mundog' kirg'onimni ko'rub, 'ho', bu sapr vaguni emas, bu vagun ruslarga maxsusdur. Konduktor ko'rsa o'zingizni haydab chiqarur, dedi.

Vagonlarning ko'ki, qizili to'rt klasslik bo'lib, bilet baholari ham bir bo'lg'anidan konduktorlarning chiqarmoqqa haqlari yo'qilgini bilur edim..." Binobarin, tezlik ila salla choponimni yechib qo'yib, boshimga telpagimni kiyib oldim. Salla choponilarni urib-urib qizil vagunga haydadilar. Afandilar! Endi qizil vagunning ichini bir tomosha qilingiz: tiqilish, odam ustiga odam o'tirmoqqa tugul, tik turmoqqa ham joy yo'q.

Er va xotin aralash, bola-chaqalar siqilishlaridan yig'lamoqda. Konduktorlarning bular bilan bo'lgan badmuomalalarini hech bir vijdon ko'tara olmas: odamni qo'li bilan urish, oyog'i bilan tepish, alhosil hayvonlarga qilmak harom bo'lgan muomala o'zbeklar haqida farz kabi ado qilinur edi. Lekin bechora soddadil o'zbeklar ularning shu muomalalariga qarshi na qo'l, na oyoq va til ila javob qaytarmaslar. Balki sukut ila javob berur edilar⁴².

Bu alamli satrlarni chop etgan "Sadoi Turkiston" mahalliy aholi dardu alamlarining ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Rus oxrankacining harbiy senzurasidan ruxsatdan o'tkazib olish uchungina "hukumatparvar gazeta" bo'lib ko'rinishga majbur bo'lgan "Sadoi Turkiston" "kosa tagida nimkosa" qabilida so'z yuritishga majbur edi. Yuqorida keltirilgan lavha mustamlakachilikning manfur manzarasini ochiq-oydin ifodalaydi. O'quvchi yuragida milliy zulmga, mustamlakachilikka nafrat, o'z erkini, sha'nini himoya qilishga da'vat uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, "Sadoi Turkiston" gazetasi XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotning eng muhim ko'zgularidan biri bo'ldi.

U mustamlakachilik siyosatining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy oqibatlarini ochib berish orqali mahalliy aholining og'ir ahvoli, kamsitilish holatlari va tengsizliklarni real tasvirlarda yoritdi. Gazeta sahifalarida aks etgan tramvaydagi ajratish, saylovdagi adolatsizlik, yer-suv siyosati hamda kundalik hayotdagi kamsitishlar jamiyatdagi chuqur muammolarni ko'rsatib berdi. Shu bilan birga, u xalqni befarqlikdan uyg'otish, bilim olishga, hunar egallashga va o'z huquqlarini anglashga chaqirdi.

Demak, "Sadoi Turkiston" faqat axborot beruvchi nashr emas, balki milliy ongni shakllantiruvchi, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi fikr uyg'otuvchi va islohot g'oyalarini targ'ib qiluvchi muhim jadid matbuoti bo'lgan.

42 O'zbekistonning yangi tarixi, I tom. – T.: Sharq, 2000. 328-b

Uning faoliyati Turkiston jamiyatida milliy uyg'onish jarayonining kuchayishiga xizmat qilganini alohida ta'kidlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sadoi Turkiston. 1914 yil, 4 aprel
2. O'zbekistonning yangi tarixi, I tom. – T.: Sharq, 2000
3. Sadoi Turkiston. 1914 yil, 3 dekabr.
4. Sadoi Turkiston. 1915 yil, 28 fevral.
5. Sadoi Turkiston. 1915 yil, 1 aprel.
6. Turon. 1 to'plam, 2004.
7. Jadidchilik, islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Fan, 1999